

---

## O'TGAN 2021 YILGA NAZAR: QO'SHTEPA TUMANIDA QANCHA ICHKI XO'JALIK YO'LLARI TA'MIRLANDI?



O'tgan 2021 yil davomida Qo'shtepa tumanida Farg'ona viloyati hamda tuman mahalliy byudjet mablag'lari, shuningdek, fuqarolar tashabbusi jamg'armasi (open byudjet) mablag'lari hisobidan 30 km ga yaqin ichki xo'jalik yo'llari asfaltlashtirildi. 40 km ga yaqin tuproqli yo'llar tosh shag'al aralashmali yo'lga o'tkazildi.



Tuman hokimining farmoyishiga asosan tumandagi barcha ichki xo'jalik tuproqli yo'llarni shag'allashtirish maqsadida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan "Farg'ona neft ba'za" MChJ bilan shartnomalar tuzilib, tuman hududidagi 36 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida 40 km ga yaqin yo'llar shag'allashtirildi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-02-18 13:30:28